



PHYSALIS O'SIMLIGINING XALQ XO'JALIGIDA VA TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI.

Muxtorova Marhaboxon Muhammadjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti Agrar qo'shma fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Teshaboyev Nodirbek

Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ituzumdoshlar (Solanaceae) oilasiga mansub bo'lgan xalq tilida yer qulupnay yoki paq-paq deb ataluvchi shifobaxsh turlar sirasiga kirgan fizalis o'simligining biologik ahamiyati, kimyoviy tarkibi, tibbiyot hamda xalq xo'jaligidagi amaliy ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Solanaceae, Physalis, yer qulupnay, Physalis alkekengi, Allium sativum, Zingiber officinale, PP, A, C vitaminlari.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается лекарственное растение физалис, относящееся к семейству пасленовых (Solanaceae), известное в народе как «земляная ягода» или «пак-пак». Описываются его биологические свойства, химический состав, а также значение в медицине и хозяйственной деятельности. В статье анализируются лечебные свойства физалиса, его применение в пищевой промышленности и декоративном садоводстве на основе научных источников.*

Ключевые слова: *Solanaceae, Physalis, земляная ягода, Physalis alkekengi, Allium sativum, Zingiber officinale, витамины PP, A, C.*

Annotation: *This article examines the medicinal plant physalis, belonging to the Solanaceae family, commonly known as "ground cherry" or "paq-paq" in folk terminology. The biological properties, chemical composition, and its significance in medicine and economic applications are highlighted. The article analyzes the therapeutic properties of physalis, as well as its use in the food industry and decorative horticulture, based on scientific sources.*

Keywords: *Solanaceae, Physalis, ground cherry, Physalis alkekengi, Allium sativum, Zingiber officinale, vitamins PP, A, C.*

KIRISH.

Insoniyat qadimdan tabiat ne'matlaridan shifo manbai sifatida foydalanib kelgan. So'nggi yillarda kimyoviy dori-darmonlardan ko'ra dorivor o'simliklarga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada oshmoqda. Buning sababi o'simliklar tarkibidagi organizm uchun zarur makro va mikroelementlar hamda biologik faol moddalarning borligi deb ayta olamiz. O'simliklarning bargi, poyasi, ildizi yoki mevalarida to'plangan biofaol moddalar turli kasalliklarni davolash, oldini olish hamda umumiy salomatlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Shu sabab, ko'p sohalarni jumladan qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, farmasevtika va tibbiyotning bir qancha yo'nalishlarida keng foydalanilmoqda. O'zbekistonning o'zida 750 dan ortiq dorivor tur mavjud.



Shunday qimmatli dorivor o'simliklardan biri-Solanaceae ya'ni, ituzumdoshlar oilasiga mansub fizalis (Physalis)dir. Uning noyob biologik xususiyatlari va ko'p qirrali foydali tarkibi sabab, unga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

ASOSIY QISM.

Tashqi morfologik tuzilishiga ko'ra yer qulupnay, xitoy fonusi deb ataluvchi noyob o'simlikning vatani Janubiy Amerika mamlakatlaridir, -deb ta'kidlaydi tibbiyot doktori Punam Sachdev. Fizalisning bir nechta turlari bo'lib, yovvoyi holda 100 turi uchraydu. Iqlim sharoitiga qarab bir va ko'p yillik bo'ladi. O'zbekiston tabiatida ya'ni, mo'tadil iqlim sharoitida bir yillik bo'ladi, chunki qishki sovuqlarga chidamaydi. Subtropik iqlimda esa ko'p yillik 3-5 yilgacha hosil berishi mumkin. Keng yetishtiriladigan hududlar AQSH, Hindiston, Xitoy va MDH davlatlarida bog' va issiqxonalarda ko'paytirilmoqda. Shunday turlaridan biri Physalis alkekengi-manzarali dekorativ o'simlik yoki Physalis peruviana ya'ni peru fizalisi madaniy, dorivor turlaridan biridir.



O'simlikning balandligi 30-60 sm, gulkosa bargi qo'ng'iroqsimon, gultojbarglari och sariq yoki oqish bo'ladi. Mevasini atrofida po'chog'i homligida ko'k rangda, pishgandan keyin pushti va to'q qizilga kiradi. Mevasi avval ko'k, pushti va to'q qizil rangga kiradi. Mevasi nordon-shirin ta'mli bo'lib maxsus qobiqchada yetiladi, bu ham o'simlikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan rasmlarning birinchisi o'simlik pishib yetilish davriga xos, ikkinchi rasmda esa fizalisning pishgan mevalarini ko'rishimiz mumkin, pishgach qobiq ochiladi. Ta'kidlash joizki, ushbu rasmlarda fizalisning 2 turi keltirilgan.

Kimyoviy tarkibiga ko'ra juda ko'plab foydali moddalarga boy. Tarkibida uglevodlar, oqsil, kletchatka inson organizmi uchun zarur kimyoviy element va vitaminlar ham bisyor. Tarkibida Kalsiy, Temir, Natriy, Kaliy elementlari, A, C va PP vitaminlari bor. Bundan tashqari flavonoidlar, karotinoidlar va steroidlar hamda organik kislotalardan olma, limon kabi kislotalar mavjud.

FOYDALANISH SOHALARI.



Xalq xo'jaligidagi o'rni: oziq-ovqat sanoatida keng foydalanilmoqda, mevasidan murabbo, kampot tayyorlanmoqda, quritilgan holda ham mayizi iste'mol qilinadi.

Past kaloriyali va kletchatkaga boyligi tufayli dietologiyada qo'llanmoqda. Yuqorida aytib o'tganimizdek, dekorativ-manzarali o'simlik sifatida qadrlanadi.

Fizialisning shifobaxsh xususiyatlari uni xalq tabobatida keng qo'llash imkonini beradi. U buyrak kasalliklari, shamollash, yengil yallig'lanishlar, ovqat hazm qilish buzilishlarida ishlatiladi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar fizialisning antioksidant va immun tizimini kuchaytiruvchi ta'sirini tasdiqlagan. Yallig'lanishlarga, jumladan artrit va ichak yallig'lanish kasalliklariga qarshi kurashadi, tarkibidagi C vitamini sabab, immunomodulyatorlik xususiyatlari bor. Fizalis ustidagi zamonaviy tadqiqotlar natijasida surunkali kasalliklarni oldini olishga yordam beruvchi birikmalar manbai sifatida e'tirof etiladi. Fizalis o'simligidan yuqorida sanab o'tilgan kasalliklardan tashqari, bosh og'rig'ini yengillashtirishda, qon bosimini me'yorga keltirishda ham foydalaniladi. Biroq hali pishib yetilmagan mevalardan va me'yoridan ortiq foydalanish zararli hisoblanadi.

AMALIY NATIJALARI.

Tabiatan quyoshli, iliq hududlarni yaxshi ko'radi, quruqchilikka nisbatan chidamlidir. Erta bahorda, mart-aprel oylarida urug'i ekiladi, 7-14 kunda unib chiqishni boshlaydi. Yengil, unumdor tuproqda parvarish qilinadi, azotli, kaliyli o'g'itlar bilan ishlov berish zarur chunki o'g'itlar foydali, ammo me'yoridan ortiq solish mumkin emas.

Ituzumdoshlar oilasining boshqa vakillariga nazar tashlasak ularning ham tarkibida bir qancha vitaminlar bor. Xususan, madaniy turlaridan pomidor (*Solanum lycopersicum*), Kartoshka (*Solanum tuberosum*) yoki Baqlajon (*Solanum melongena*) va *Physalis* kabi vakillarining umumiy belgisi sifatida tarkibida mavjud vitamin va flavonoidlarni aytsak o'rinlidir. Ayniqsa, har birining tarkibida A va C vitaminlar bo'lib, yuqorida aytib o'tganimizdek, immunitet oshirish, shamollash va infeksiyalarga shuningdek yallig'lanishlarga qarshi terini yoshartiruvchi antioksidantlar sifatida qo'llanilishidan xabardormiz. A vitamin ya'ni betakarotin ko'z to'qimalarini himoya qiladi. Mana shu xususiyatlariga ko'ra *Physalis* va boshqa o'simliklardan immunitetni oshiruvchi biologik faol qo'shimcha tayyorlashimiz mumkin va immuniteti past bo'lgan bolalarga aytaylik sovuqda shamollashga ko'proq moyil bo'lganlarga berishimiz mumkin. Xuddi shuningdek, ba'zi insonlarning terisi o'ta ta'sirchan bo'lishi mumkin, sovuq iqlim sharoitida teri dag'allashib, shikastlanishi mumkin. Ana shunday vaziyatlar uchun tabiiy krem tayyorlash va amaliyotga tadbiq etish mumkin. Yurak qon-bosimini me'yorda ushlab turish uchun ham ushbu fizalis beminnat xizmati qiladi. Tarkibidan kaliy elementini olib, yurak qon-tomir tizimini me'yorlashtiruvchi tarkibga ega zanjabil (*Zingiber officinale*), sarimsoq (*Allium sativum*) kabi shifobaxsh o'simliklar bilan zamonaviy texnologiyalar asosida iste'mol uchun qulay preparat tayyorlash ishlarini amalga oshirishimiz mumkin.

XULOSA.



Ona tabiat bizga bitmas-tuganmas dorivor o'simiklarni yetishtirib bermoqda. Har bir o'simlik o'ziga xos noyob xususiyatga ega. Shunday qilib, dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlarini chuqur o'rganish nafaqat xalq tabobati, balki zamonaviy tibbiyot uchun ham katta ahamiyatga ega. Ularni ilmiy asosda qo'llash salomatlikni mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish va ekologik toza davolash vositalarini yaratishda keng imkoniyatlar ochadi. Ulardan to'g'ri foydalanish orqali tibbiyot va farmasevtikada bir qancha foydaga ega bo'lish mumkin. Fizalisning xalq xo'jaligidagi o'rni ham beqiyos bo'lib, u oziq-ovqat sanoatida murabbo, sharbat, quritilgan meva va turli parhez mahsulotlar tayyorlashda qo'llaniladi. Dekorativ navlarining landshaft dizaynida va gulchilikda qo'llanilishi o'simlikning estetik qiymatini oshiradi. Bundan tashqari, fizalis pektin va limon kislotasi olishda ham sanoat uchun muhim xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Uning ko'p qirrali xususiyatlari ushbu o'simlikni qishloq xo'jaligi va tibbiyot amaliyotiga keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

REFERENCES:

1. Флора Узбекистана III. Toshkent: "East View Information Services" 2019, 201 b.
2. Jalilov, A.J. O'zbekistonning dorivor o'simliklari: biologiyasi, tarqalishi va ahamiyati. — Toshkent: "Noshir", 2018. — 280 b.
3. Maxmudov V., Maxmudov A.V. Dorivor o'simliklar flora va sistematikasi // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent. 2022. «Fan» nashriYoti davlat korxonasi, 376 bet.
4. Raxmonov, S.O. Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlashning agrotexnologik asoslari. — Toshkent: "O'qituvchi", 2019. — 256 b.
5. <https://agro-olam.uz/fizalis/>.
6. Овощные и бахчевые культуры в Узбекистане, 2001.
7. <https://hujjat24.uz/product/ozbekistonda-dorivor-osimliklar-tarix-va-ahamiyati>